

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI  
TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Tillayev Sharif Omonboyevich**

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan:

birinchidan, ayniqsa, joylarda jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining samarali yaxlit tizimi mavjud emasligi ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini lozim darajada muvofiqlashtirishni, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va targ'ib qilishni ta'minlamayapti;

ikkinchidan, mamlakatimizda ham ommaviy sport, ham oliy sport yutuqlari sohasida aniq vazifalar va maqsadli ko'rsatkichlarni belgilagan holda, o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilmagan;

uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik shartlarida sportning zamonaviy moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasini yaratish bo'yicha nodavlat sektor bilan o'zaro munosabatlarning past darajada ekanligi ushbu sohada mavjud muammolarni samarali hal etishga imkon bermayapti;

to'rtinchidan, joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof tizimi mavjud emasligi terma jamoalar tarkibini sifatli to'ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashni ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda;

beshinchidan, sport kadrlarini, ayniqsa boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkonini bermayapti;

oltinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasini qo'llab-quvvatlashning faqat alohida sport turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, nooqilona tizimi boshqa ommaviy olimpiya sport turlarini, eng avvalo, sport o'yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmasligiga olib kelgan;

yettinchidan, sportchilarni tayyorlash va ular tibbiy ta'minotining innovatsion tadqiqotlari va uslubiy ishlanmalarini, zamonaviy talablarga javob beradigan standartlarining mavjud emasligi sifatli o'quv-mashq jarayonining yo'lga qo'yilishini ta'minlamayapti;

# ILM FAN XABARNOMASI


## Ilmiy elektron jurnali

sakkizinchidan, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar sarflanishing asosliligi va haqqoniyligi ustidan nazoratning, eng avvalo, ichki nazoratning moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va ushbu sohada siiiste'molchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmi shakllantirilmagan;

to'qqizinchidan, xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahalliy sport asbob-uskunalarini va inventarlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan, shuningdek, bunday ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan mexanizmi nazarda tutilmagan.

Dunyoda sport shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda boshqaruv faoliyati «Jismoniy tarbiya va sport» tizimining har bir tarkibiy bo'linmasida muhim yo'nalish hisoblanadi. Nafaqat butun tizimning faoliyat yuritishi, balki uning kelgusi rivojlanishi ham qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari to'g'rilinga, ularning tezkorligiga, o'z vaqtida qabul qilinishiga bog'liq. Shu tufayli nazariy tadqiqot oldiga yangi axborot texnologiyalari qo'llanilgan holda quyidagi yo'nalishlarda boshqaruv faoliyati muammolarini o'rganish masalalari qo'yildi: Zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar sur'ati va xususiyati jahon hamjamiyati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy sifatlari va uni jadallashtirish yo'nalishlaridan hisoblanadi. Respublikamizning bugungi sharoitlariga nisbatan izohlaganda, ushbu o'zgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishning ushbu ijtimoiy tizimni jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga yaqinlashtirish asosida yanada rivojlantirishga ko'maklashadigan hamda birinchi o'ringa olib chiqish manbai hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda puxta yo'lga qo'yilgan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini boshqaruv tizimi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasi kabi murakkab tizimlar va jarayonlar tadqiqoti boshqaruv tizimini shakllantirish va uning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, boshqaruv tizimi umumiy ko'rinishda bevosa va teskari bog'lanish kanallari bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladigan boshqarish ob'ektini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ma'lumki, boshqarish jarayonida boshqariladigan ob'ektga boshqaruvchi va o'rin to'ldiruvchi ta'sirlar ko'rsatiladi, ushbu ta'sir natijasi esa «chiqish» ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi. Bunda boshqaruvchi ta'sirlar «chiqish» ko'rsatkichlariga biriktiriladi.[1] Shunday qilib, boshqaruv tizimi ikkita tizim – boshqarish ob'ekti va boshqaruvchi tizim jamlanmasi sifatida baholanishi mumkin (1-rasm).

### 1-rasm



Boshqaruvchi tizim boshqarish ob'ektiga o'zini qanday tutishi kerakligi to'g'risida axborot (boshqaruvchi qarorlar)ni boshqaruvchi signallar uzatish orqali ta'sir ko'rsatishi ifodalangan. Qayd etish kerak, boshqarish maqsadiga erishishni ta'minlaydigan qarorlarni ishlab chiqish uchun boshqaruvchi tizim tashqi muhit holati va boshqarish ob'ekti holati to'g'risida axborotga ega bo'lishi kerak. Bunday axborotni uzatish kanali «teskari bog'lanish» deb nomланади. Boshqarish umumiy mexanizmi shundan iborat. Boshqarish deyilganda, boshqarish ob'ektiga aniq maqsadga

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

qaratilgan ta'sir ko'rsatish jarayoni tushunilib, u ta'sir natijasida muayyan funksiyalarni bajaradi. Maxsus adabiyotlarida boshqarish muayyan ob'ekt, sifatida qaralib tizim yoki jarayon holatining maqsadga erishishga olib boradigan har qanday o'zgarishi sifatida talqin etiladi. Boshqarish fani fanlar integratsiyasi davrining o'ziga xos fani hisoblanadi. U oqilona tashkil qilishni nazarda tutadi, shu tufayli boshqarish fani rolli fikrlashni engillashtirish va optimal qarorlar qabul qilishdan iborat<sup>1</sup>.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. В.Ю.Волков. Компьютерные технологии в физической культуре, теория и практика физической культуры". Москва. 1998 г. 106 с.
3. V.V.Mixalev. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi axborot texnologiylari.
4. Toshkent. 1998 y. 110 bet.
5. K.D.Yarashev. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. Toshkent. 1998 y. 66 bet.
7. R.S.Salomov, F.A.Kerimov. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar.
8. Toshkent. 2003 y. 40 bet.